



STERELIZATSIYA TURLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH JARAYONI

Sharipova Muhayyoxon

*Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi
Hamshiralik ishi kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Sterelizatsiya turlari va uni amalga oshirish jarayoni yoritilgan bo'lib, mazkur masala yuzadidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tafsiyalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: cho'g'lantirish, sterilizator, avtoklav, flegmona, absess

TYPES OF STERILIZATION AND THE PROCESS OF ITS IMPLEMENTATION

Annotation: this article discusses the types of sterilization and the process of its implementation, and the scientific proposals and practical recommendations formulated by the author on this issue are reflected.

Keywords: sterilization, sterilizer, autoclave, phlegmon, abscess

Sterilizatsiya-mikrob va ularning sporalarini batamom yo'qotish yoki qatronlashdir. Sterillash turli usullar: kuydirish, cho'g'lantirish, (qaynatish, avtoklavlash, gamma-nurlar va kimyoviy moddalar bilan qayta ishlash orqali amalga oshiriladi.

1. Kuydirib sterillash usulida sterillik ishonchli bo'lmaydi va asboblari tez ishdan chiqadi. Bunday asboblari tayyor steril asbob bo'lmagan shoshilinch operatsiyalarda qo'llaniladi. Shu maqsadda sterilizator qopqog'iga yoki tog'orachaga asboblari solinib, ozroq miqdorda 96% lispirt quyiladi va yoqiladi. Spirt yonib bo'lgandan so'ng asboblari ishlatish uchun tayyor hisoblanadi.

2. Quruq issiqlik bilan sterillash (cho'g'lantirish) metall asboblarchun qo'llaniladi. Bu usulda quraq issiqlik beradigan maxsus shkaflardanfoydalaniladi. Sterillash ishonchli bo'lgani bilan asboblarchaynatishdagiga nisbatan tezroq ishdan chiqadi.Quruq issiqlik beradigan shkaflar va avtoklavlar sterilizatorlar, qaynash yo'li bilan sterillaydigan sterilizatorlar esa qaynatgichlar deb ataladi.



3. Bosim ostidagi bug' bilan sterillash avtoklavlash deyiladi. Operatsionchoyshablar, asboblarchaynash uchun sistema va jarrohlikda ishlatiladigan boshqa asbob-anjomlar avtoklavlash yo'li bilan sterillanadi. Sterillanadigannarsalar maxsus qutilar(bikslar)ga solinib avtoklavga qo'yiladi. Avtoklavdagi suv qaynab bug' holiga o'tgach, unga bosim beriladi va qancha ko'pbosim berilsa avtoklav ichidagi harorat shuncha ko'tariladi. 1 atmosfera bosimi 120° C, 1,5 atro 127°C, 2 ami 134° C ga teng.



Qaynatib sterillash. Bu usul bilan odatda metall asboblar, shishava rezina buyumlar sterillanadi. Asboblarhi cho'tka va sovun bilan yuvgandan so'ng 2 foizli ichimlik sodasi eritmasida suv qaynab chiqqanvaqtdan boshlab 45 minut davomida qaynatiladi. Yiringli infeksiya va ayniqsa anaerob mikroorganizmlarda ifloslangan asboblar bo'lib-bo'lib, 2-3 marta 45 minutdan qaynatiladi. Steriliash qopqog'i zich berkitiladigan elektr isitgichi bo'lgan metall qutidan iborat maxsus qaynatgich(sterilizator)larda o'tkaziladi. Shpris, ignalar va boshqa buyumlarni sterillashdan oldin ularni fizik va kimyoviy tozalashga katta ahamiyat beriladi. Asboblar foydalanilgaridan so'ng oqar suvda yuviiadi va issiq (50°C) tozalovchi eritmaga. 15 daqiqagacha solib qo'yiladi. Asboblar

ifloslanganda 0,5% li tozalovchi eritma (20 ml 30% li pergidrol ©I'tmasi, 975 ml suv, 5 g «Novost» kukuni), yiringdan ifloslanganda 1% li tozalovchi eritma (40 ml 30% li pergidrol eritmasi, 950 ml suv, 10 g «Novost» kukuni)dan foydalaniladi



5.Nur bilan sterillash - (5 va y nurlar yordamida amalga oshiriladi.Nur bilan sterillash katta energetik kuchga ega bo'lib, (3 va ynurlarning kuchi materiallarning istalgan chuqurliklarigacha yetib boradi. Bu usul katta davolash-profilaktika muassasalarida amalga oshiriladi.

6.Ultratovush bilan sterillash maqsadida sterilizatorlarga quyilgankuchsiz antiseptik vositalar ultratovush toiqinlari ta'sirida jarrohlikasboblari, kichik hajmdagi plastmassa buyumlar yoki jarrohning barraoqlarini yuqumsizlantiradi.

7.Kimyoviy vositalar yordamida sterillash. Kesadigan asboblari ishqorli suvda yuvilgandan so'ng oqar suyda chayiladi, qaynab turgan suvga solib 5 daqiqa sterillanadi, so'ngra spirtida (30 daqiqa) yoki tarkibida 3 xil rnodda bor eritmada (3 soat) saqlanadi. Optik sistemali asboblari (sistoskop, rektoskop va boshqalar)ni sterillashda uning har bir qismini 1:1000 konsentratsiyadagi simob oksisiani eritmasi bilan yuvib, so'ngra spirt va natriy xloridning izotonik eritmasi bilan (optik qismiga tegmasdan) artiladi. Bir qancha asboblarni steriliaganda ulami zararsizlantiradigan 1:5000 nisbatdagi diosid eritmasiga (3-4 soatga) solib qo'yish mumkin. Hozirda tibbiyot xodimlari ishiga



yengillik yaratish va tibbiy harnshiraning bemor bilan ko'proq muloqotda bo'lishini ta'minlash maqsadida markazlashgan sterillaydigan bo'limlar tashkil etilgan. Bu olib kelingan asboblarni bir vaqtning o'zida va yetarli darajada yuqumsizlantirishga imkon beradi. Hamshiralalar ertalab asboblarni sterillash bo'limiga topshiradilar va sterillangan asboblarni topshirilgan miqdorda qabul qilib oladilar.

Steril materiallarni ishonchli saqlash uchun loyihasi jihatidan har xil filtrli steriizatsion qutilardan foydalaniladi.

Tibbiy asboblalar, oqliklar va boshqa buyumlarni sterillash jarayonlarini markazlashtirish mehnatni tashkil etishning ilg'or turi hisoblanadi. Bunday bo'limlarning tashkil etilishi o'rta tibbiyot xodimini qo'shimcha ishlardan ozod qiladi va ularga bemorlar uchun ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi. Bundan tashqari virusli gepatit, postinyeksion flegmona va absesslar bilan kasallanishning oldini olinadi. So'nggi vaqtlarda ko'p marta ishlatiladigan an'anaviy buyumlar o'rniga bir marta foydalaniladiganlari qo'llanilmoqda.

Eslatma! Tibbiyot hamshiralari sterillash usullarini mukammal bilishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bemorlarni uyda va shifoxonada davolash
M.Nazirov
2. Q.S Inomov "Hamshiralik ishi asoslari"
3. Internet saydlari:
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
5. <https://fayllar.org/>
6. <https://daryo.uz/>